# KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI

*Samarqand davlat chet tillar instituti*
*Ingliz tili va adabiyoti nazariyasi kafedrasi*
***Sh.O.Mamayoqubova***
*Elektron pochta: mamayoqubovashahlo@gmail.com*
*Tel: +998937261746*
*Samarqand davlat chet tillar instituti talabalari:*
***Raxmonova N.R, Xolboyeva D.G', Abduraxmonova G.M.***

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarni o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik metodlardan foydalanish jarayoni haqida so'z boradi. Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda chet tillarni o'rganishga katta e'tibor berilib kelinmoqda.Maktabgacha ta'lim sohasini uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamaiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar.** Ta'lim, metodlar, audio va video darsliklar, o'yin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorida ham bugungi yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasida ekanligidan dalolatdir. Til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi,kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin..

Hozirgi kunda nafaqat , maktab, litsey va kollej o'quvchilari va oily o'quv yurtlari talabalariga,balki M.T.M tarbiyalanuvchilari va turli sohada ishlovchi xodimlarga ham chet tilini,xususan ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgan.Psixologlarning fikricha bolalar kattalaraga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar.Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik ularda taqlid qilish xususiyatli kuchli ekanligi, kattalaga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir.Shuni e'tiborga olish kerakki, 6-7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosinit tushunib emas,uni mexanika tarzda yodlaydi.Shuning uchun kichik

yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur.Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish ancha mushkul va ma'suliyatli.

Metodika to'g'ridan to'g'ri ta'lim tadbirlarini o'tkazish bolalarning til qobiliyatlarini tuzilishining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda qurilishi va ularning rivojlantirishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bolalarga ingliz tilini qiziqarli va mazmunli o'rgatish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin. Qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish; Tushunishi qiyin bo'lgan gaplar yoki esda qolishi qiyin bo'lgan so'zlar, ma'noga ega bo'lmgan harf yoki so'z birikmalarni kuyga solib o'rgatish. Bunga misol qilib,bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlarini shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.
Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan o'yinlar;
- multfilmlar; Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunma- sada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi.Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l.

Multfilmlar; Bolalarning sevimli ko'rsatuvlaridan biri aylangan multfilmlar orqali o'rgatish.Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Ingliz tilidagi multfilmlar bir vaqtning o'zida bilalarga chet tillarni o'rgatishning ko'plab muammolarini hal qilishga yordam beradi. Rol ijro etish ( role play) o'qituvchi biror ma'lumotni masalan: hayvon va qushlarning nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etish yoki bolalarga ijro ettirish lozim. Mavzuga oid muhit; O'qituvchi mavzusiga qarab o'sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o'rganishadi. Masalan: traveling, birthday, in the kitchen va boshqalar. Traveling(sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyushtirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish(Tashkent, Samarkand, Bukhara, England, USA) muhimligi haqida ma'lumot beradi. Bu hol o'quvchilarning so'z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyo qarashini o'stiradi.

Ingliz audio ertaklarini tinglashni yanada qiziqarli qilish uchun siz ertak terapiyasininlarning so'z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini o'stiradi.g usullaridan biri - ertak chizishidan foydalanishingiz mumkin. Ammo tinglash paytida rasm chizish, agar ertak syujeti bolaga kamida bir oz tanish bo'lsa, ishlaydi. Shuning uchun ertak ikkinchi yoki uchinchi marta tinglanganda bolalarga qalam va qog'oz beriladi. Haqiqat shundaki, tinglash paytida rasm chizish - bu

ma'lumotni bir vaqtning o'zida idrok etish va ko'paytirishning chuqur ko'nikmalariga ta'sir qiluvchi jarayon. Chizish jarayonida bola eshitganlari bilan assotsiativ aloqalarni shakllantiradi. Ixtiyoriy yoki beixtiyor, rasmda tasvirlangan syujet bilan bog'liq bo'lgan begona so'zlar esga olinadi. Topishmoqlar; Bolalarda topishmoqlarning javobini topishga qiziqish kuchli. Shuning uchun o’qituvchi topishmoqni ingliz yoki o’zbek tilida aytsada, uning javobini bolalardan ingliz tilida aytishini talab qilish lozim.Shunda bolalar ingliz tilidagi so’zlarni tez o’rganishadi.

Imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali; O’qituvchi bolaga biror gapni gapirganda, masalan, bu yoqqa kel ( come here), turing ( stand up), eshikni och ( open the door) kabi gaplarda imo-ishoralardan foydalansa bolaga tushunarli bo’ladi. Amaliy mashg’ulotlar; Mevalar va boshqa oziq ovqatlarni tatib ko’rish orqali ularni inglizcha nomlarini aytishadi. Bir amalyotchi psixologning fikricha “ Bolalarning esida biror narsaning mahkam o’rnashib qolishini xoxlovchi pedadog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko’prog’ini ko’zi, qulog’i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, agar iloji bo’lsa hidlash va ta’lim bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilish kerak” deb takidlagan. Videofilmlar; Maktabgacha yosh bolalar tomonidan ingliz tilini o’rganish kommunikativ usulidir.Dastur materiallari bola uchun qiziqarli,ammo ayni paytda tarbiyaviydir.Bolalar atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarga qo’shilib,o’ynab, ingliz tilini o’rganadilar.

Leksik va gramatik materiallar ko’ngil ochish usulida kiritiladi.Nafaqat so’z boyligi bilan tanishibgina qolmay,balki ba’zi bir narsalar bilan bajarilishi mumkin bo’lgan harakatni aniq ko’rsatib beradi,bu so’zlarni tez yodlashga va chet tilida oddiy suhbat qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.Maktabgacha yoshda ingliz tilini o’qitishda bolalar asta-sekin kommunikativ komptentsiya asoslarini rivojlantirdilar bu esa ingliz tilini o’rganishning dastlabki bosqichida quyidagi jihatlarni o’z ichiga oladi. 1.Fonetik nuqtai nazardan to’g’ri takrorlash qobilyati,inglizcha so’zlar o’qituvchisining orqasidan takrorlash eshitish diqqatni va to’g’ri talaffusni bosqichma-bosqich shakillantirish. 2.Inglizcha so’z boyligini oshirish, bitlashtirish va faollashtirishdir. O’yin bu-proksimal rivojlanish zo’nasiga yo’naltirilgan bo’lib pedagogik maqsadni bola uchun jozibali faoliyat motivi bilan birlashtiradi.Maktabgacha yoshdagi bolaning so’z boyligi bir necha o’nlab so’zlarga yetganda biz ingliz tilidagi audio ertaklari yordamida ta’lim faoliyatini diversifikatsiya qilishi mumkin.Audio hikoyada bolalar o’qituvchi bilan birgalikda rasmlarni ko’rib chiqishadi.Shu bilin birga so’zlarni talaffuz qilishadi, bu esa bolaning talaffuzini o’stiradi va xotirani ham yaxshilaydi.

Xulosa qilib aytganda , kichik yoshdagi bolalarga til o’rgatish majburiyat sifatida emas,qiziqarli mashg’ulot tarzida olib borilishi,bir necha samarali usullardan foydalanib dars o’tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo’lib xizmat qilishi mumkin.Zero, Navoiy bobomiz aytganidek, “Tl bilgan-el biladi”.

**Foydalangan adabiyotlar:**

1. Galskova N.D. Nikitenko Z.N. Chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti. boshlang'ich maktab: uslubiy qo'llanma.-M.: Airis-press, 2004.
2. Astafieva M.D. Ingliz tilini o'rganayotgan bolalar uchun ta'til. - M.: Mozaikasintez, 2009 y.
3. Trofimova G.S. Pedagogical bases of foreign language teaching (Subactic didactics). - Izhevsk: Udmurt University Publishing House, 1999.
4. https://moluch.ru/archive/138/39159/